Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda art texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari.....	546
<i>Mamatova Husnora Eshquvatovna</i>	
O'quvchi yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish va uni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash.....	550
<i>Mehmonova Nilufar Shuhratovna</i>	
Integrating Social-Emotional Learning in EFL Classrooms: Enhancing Language Proficiency and Emotional Intelligence.....	553
<i>Meylinorova Feruza Bakhtiyor qizi</i>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish	559
<i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi	562
<i>Murodova Sarvigul Raxim qizi</i>	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirishning funksional modeli	566
<i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish	569
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy fanlar"dan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	574
<i>Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna</i>	
The Intersection of Science and Pedagogy: The Teacher's Role in Professional Evolution	580
<i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Shukurova Madina</i>	
Maktabgacha katta guruhlarida STEAM texnologiyasi bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	583
<i>Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	586
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik	590
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....	594
<i>Xaitov Abdusolim Abdulkim o'g'li</i>	
Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida	596
<i>Xamroyeva Sitara Samadovna</i>	



Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	599
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish	602
<i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari	605
<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	



BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIY FANLAR ORQALI KOGNITIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH ZAMONAVIY YECHIMLARINI ISHLAB CHIQUISH USULLARI

Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

ORCID: 009-05-25-27-889

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yechimlarni ishlab chiqish usullari yoritilgan. Tadqiqotda kuzatish, tajriba, muammoli vaziyatlar hamda tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining o'quvchilarda tafakkur, diqqat, xotira, mantiqiy fikrlash va muammo yechish ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni integrativ va kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishning pedagogik samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari amaliy mashg'ulotlar va dars jarayonida qo'llash uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tabiiy fanlar, kognitiv qobiliyatlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim, muammoli o'qitish.

Abstract: This article examines methods for developing modern solutions aimed at enhancing the cognitive abilities of primary school pupils through natural sciences. The study analyzes the role of observation, experimentation, problem-based tasks, and inquiry-based learning in fostering pupils' thinking, attention, memory, logical reasoning, and problem-solving skills. The pedagogical effectiveness of competency-based and integrative approaches in teaching natural sciences at the primary level is substantiated. The findings of the research contribute to the development of practical methodological recommendations for classroom implementation.

Key words: primary education, natural sciences, cognitive abilities, modern pedagogical technologies, inquiry-based learning, problem-based learning.

Аннотация: В статье рассматриваются методы разработки современных решений, направленных на развитие когнитивных способностей учащихся начальных классов средствами естественных наук. Анализируется роль наблюдений, экспериментов, проблемных заданий и исследовательского обучения в формировании мышления, внимания, памяти, логического мышления и навыков решения проблем у младших школьников. Обосновывается педагогическая эффективность компетентного и интегративного подходов в преподавании естественных наук на начальном этапе обучения. Результаты исследования могут быть использованы при разработке методических рекомендаций для учебного процесса.

Ключевые слова: начальное образование, естественные науки, когнитивные способности, современные педагогические технологии, исследовательское обучение, проблемное обучение.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib, o'quvchilarda nafaqat bilimlarni egallash, balki kognitiv qobiliyatlar – mustaqil fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, muammo yechish, xulosa chiqarish va ijodiy yondashuvni shakllantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning intellektual salohiyati, bilishga bo'lgan ehtiyoji va tafakkur mexanizmlari shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi. Shu bois, ushbu bosqichda o'qitiladigan fanlar mazmuni va metodikasi o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga bevosita xizmat qilishi zarur.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan tabiiy fanlar (tabiatshunoslik, atrof-muhitni o'rganish, oddiy tabiiy hodisalar va jarayonlar) o'zining amaliy yo'naltirilganligi, hayot bilan uzviy bog'liqligi hamda kuzatish va tajribaga tayanganligi bilan o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda muhim didaktik imkoniyatlarga ega. Tabiiy fanlar mazmuni orqali bolalarda atrof-muhitga nisbatan qiziqish uyg'onadi, "nima uchun?" va "qanday?" kabi savollar paydo bo'ladi, bu esa ularning mantiqiy fikrlashi va sabab-oqibat aloqalarini anglash qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy axborot berishga asoslangan o'qitish modeli boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini yetarli darajada ta'minlamaydi. Shu munosabat bilan ta'lim jarayoniga tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim, muammoli o'qitish, kompetensiyaviy yondashuv, STEAM elementlari hamda interfaol metodlarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu yondashuvlar orqali o'quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki uni izlanish, tajriba va muhokama jarayonida faol ravishda egallovchi subyekt sifatida shakllanadi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha mavjud metodik tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab hollarda darslar mazmuni amaliy faoliyat bilan yetarli darajada boyitilmaydi, kuzatish va tajribalardan tizimli foydalanilmaydi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va xulosalar chiqarishiga kam e'tibor qaratiladi. Natijada o'quvchilarda bilimlar yuzaki o'zlashtiriladi va ularning kognitiv salohiyati to'liq namoyon bo'lmaydi. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yechimlarni ishlab chiqish, ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish hamda metodik jihatdan asoslash dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida maydonga chiqmoqda.

Mazkur tadqiqot aynan ushbu muammoni hal etishga yo'naltirilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini faollashtiruvchi samarali metod va usullarni aniqlash hamda ularni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini yoritishni maqsad qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinflarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kognitiv rivojlanish tushunchasi o'quvchilarning idrok, xotira, tafakkur, diqqat, nutq va muammo yechish kabi aqliy jarayonlarining shakllanishi va takomillashuvini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlar ayniqsa boshlang'ich ta'lim davrida jadal rivojlanadi va keyingi ta'lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda kognitiv rivojlanishning nazariy asoslari J. Piaje, L. S. Vygotskiy, J. Bruner kabi olimlar tadqiqotlarida keng yoritilgan bo'lib, ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, bolalarda tafakkur faoliyatining rivojlanishi faoliyat jarayoni, muhit bilan o'zaro ta'sir va ijtimoiy muloqot orqali amalga oshadi. Ayniqsa, Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi rolini asoslab beradi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda tabiiy fanlar o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida baholanadi, chunki ularning mazmuni o'quvchilarning kundalik hayot tajribasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, kuzatish, tajriba, solishtirish va xulosa chiqarishga asoslanadi.

Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, aynan shu faoliyat turlari o'quvchilarda mantiqiy fikrlash va sabab-oqibat munosabatlarini anglashni rivojlantiradi. Mahalliy pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, o'quvchi faqat bilim egallovchi emas, balki uni amaliy faoliyatda qo'llay oluvchi, mustaqil fikr yurita oluvchi shaxs sifatida shakllanishi zarurligi asoslab berilgan.

Tabiiy fanlar mazmuni esa kompetensiyalarni, xususan, kognitiv va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Xorijiy tadqiqotlarda boshlang'ich sinflarda tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim (Inquiry-Based Learning) va muammoli o'qitish (Problem-Based Learning) texnologiyalarining samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, ushbu yondashuvlar o'quvchilarning savol berish, taxmin ilgari surish, tajriba o'tkazish va natijalarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi, natijada o'quvchilar bilimlarni mexanik yodlash emas, balki ongli ravishda o'zlashtiradi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy manbalar tahlili boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha metodik tizimlar yetarli darajada kompleks va tizimli ishlab chiqilmaganini ko'rsatadi, chunki aksariyat tadqiqotlarda alohida metod yoki usulning samaradorligi yoritilib, ularni zamonaviy ta'lim talablari asosida yagona metodik model sifatida joriy etish masalasi yetarlicha o'rganilmagan.

Demak, adabiyotlar tahlili natijalari boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy, tizimli va amaliy yechimlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi hamda mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga, nazariy xulosalarni amaliy metodik tavsiyalar bilan boyitishga yo'naltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yechimlarning samaradorligi amaliy tajriba-sinov ishlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayoni pedagogik tajriba, kuzatish, suhbat, diagnostik topshiriqlar hamda nazorat ishlari orqali tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'tkazilib, tajriba va nazorat



guruhlari shakllantirildi. Tajriba guruhida tabiiy fanlar darslari zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etildi, jumladan, dars jarayoniga muammoli savollar, oddiy tajribalar, kuzatishlar, grafik-organayzerlar hamda tadqiqotga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimli ravishda joriy etildi. Har bir mavzu o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi muammoli vaziyatlar bilan boyitildi. Nazorat guruhida esa darslar asosan an'anaviy tushuntirish va savol-javob metodlari asosida olib borildi. Tajriba boshlanishidan avval o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlari darajasi, ya'ni diqqat barqarorligi, xotira hajmi, mantiqiy fikrlash, tasniflash va muammo yechish ko'nikmalari maxsus diagnostik topshiriqlar yordamida aniqlab olindi.

Dastlabki natijalar tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida sezilarli farq mavjud emasligini ko'rsatib, tadqiqot sharoitining ob'ektivligini ta'minladi. Tajriba-sinov ishlari yakunida o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlari qayta diagnostika qilindi va olingan natijalar tahlili tajriba guruhidagi o'quvchilarda bilish jarayonlarining rivojlanish darajasi sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Xususan, o'quvchilarning muammoli vaziyatlarga nisbatan mustaqil yondashuvi, savol berish faolligi hamda xulosalar chiqarish ko'nikmalarining rivojlanganligi aniqlandi. Diqqat va xotira ko'rsatkichlari bo'yicha ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilib, tajriba guruhidagi o'quvchilar mavzuni idrok etishda barqarorroq diqqatni saqlashga, tajriba jarayonida olingan ma'lumotlarni eslab qolish va ularni qayta ifodalashda yuqori natijalarni namoyon etishga erishdilar. Mazkur holat tabiiy fanlar darslarida amaliy faoliyatga ustuvor ahamiyat berilgani bilan izohlanadi. Mantiqiy fikrlash va tasniflash ko'nikmalari tahlili tajriba guruhidagi o'quvchilar predmet va hodisalarni muhim belgilariga ko'ra guruhlash, o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashda nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarga erishganini ko'rsatdi. Ayniqsa, sabab-oqibat bog'lanishlarini izohlash jarayonida o'quvchilarning nutqiy faolligi oshgani kuzatildi. Olingan natijalar boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni tadqiqotga yo'naltirilgan va muammoli o'qitish asosida tashkil etish o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanini tasdiqladi. O'quvchilar bilimni tayyor shaklda qabul qilishdan ko'ra, uni tajriba va kuzatishlar orqali mustaqil ravishda kashf etishga intildilar, bu esa ularning bilish jarayonida faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda grafik-organayzerlar, vizual materiallar va jamoaviy muhokamalarning muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi, chunki ushbu vositalar o'quvchilarning fikrlarini tizimlashtirish, umumlashtirish hamda mantiqiy ketma-ketlikda ifodalashiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari tabiiy fanlar asosida tashkil etilgan zamonaviy darslar o'quvchilarning kognitiv faolligini sezilarli darajada oshirishini, muammoli vaziyatlar va tajribalar esa ularning mustaqil fikrlash hamda muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini tasdiqladi. Integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish qobiliyatlarini tizimli shakllantirishga imkon yaratib, taklif etilgan metodik yechimlarning boshlang'ich ta'lim amaliyotida qo'llash uchun samarali va maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatdi. Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida olingan ma'lumotlar tabiiy fanlar darslarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatib, bu holat pedagogika va psixologiya fanlarida ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan uzviy bog'liq holda izohlanadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan ijobiy o'zgarishlar, avvalo, o'quvchilarning muammoli vaziyatlarga mustaqil yondashuvi hamda savol berish faolligining oshishi bilan namoyon bo'ldi. Bu holat tadqiqotga yo'naltirilgan va muammoli o'qitish texnologiyalarining boshlang'ich ta'lim sharoitida samarali ekanligini ko'rsatadi. O'quvchilarning bilimni tayyor shaklda qabul qilmasdan, uni kuzatish va tajriba asosida mustaqil kashf etishga intilishi ularning kognitiv faolligining oshishiga xizmat qildi. Diqqat va xotira ko'rsatkichlaridagi ijobiy o'zgarishlar tabiiy fanlar darslarida amaliy faoliyatning ustuvorligi bilan bevosita bog'liq.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar tajribalar jarayonida faol ishtirok etganlarida o'rganilayotgan hodisalarni chuqurroq idrok etadilar va ularni uzoq muddat eslab qolish qobiliyati shakllanadi. Bu holat kognitiv psixologiyada faoliyat asosida o'rganish tamoyillari bilan mos keladi.

Mantiqiy fikrlash va tasniflash ko'nikmalarining rivojlanishi ham muhim ilmiy ahamiyatga ega natija sifatida baholanishi mumkin. Tadqiqot jarayonida tajriba guruhidagi o'quvchilar sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, predmet va hodisalarni muhim belgilariga ko'ra guruhlash hamda o'z fikrlarini mantiqiy ketma-ketlikda ifodalashda yuqori natijalarni ko'rsatdilar. Bu esa tabiiy fanlar mazmunining kognitiv jarayonlarni rivojlantirishga mos ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalari grafik organayzerlar, vizual materiallar va jamoaviy muhokamalarning ta'lim samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Ushbu vositalar o'quvchilarning fikrlash jarayonini tizimlashtirish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishiga yordam berib, bilimlarning ongli o'zlashtirilishiga xizmat qildi. Ayniqsa, jamoaviy muhokamarlar o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarini mavjud ilmiy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu ishda olingan xulosalar mahalliy va xorijiy pedagog olimlarning qarashlarini to'ldiradi hamda amaliy jihatdan boyitadi. Biroq tadqiqot faqat ma'lum sinflar va cheklangan tajriba-sinov muhiti doirasida olib borilganligini inobatga olgan holda, kelgusida kengroq miqyosda va uzoq muddatli tadqiqotlar o'tkazish zarurati mavjud.



Umuman olganda, muhokama qilingan natijalar boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqotda taklif etilgan yondashuvlar va metodik yechimlar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida olib borilgan nazariy tahlillar hamda amaliy tajriba-sinov ishlari natijalari boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlari davomida tadqiqotga yo'naltirilgan va muammoli o'qitish texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarning bilish faoliyatini sezilarli darajada faollashtirgani aniqlandi. Xususan, o'quvchilarning diqqat, xotira, mantiqiy fikrlash, tasniflash hamda muammo yechish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Mazkur holat tabiiy fanlar darslarida kuzatish va tajriba faoliyatining ustuvorligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, grafik-organayzerlar, vizual materiallar va jamoaviy muhokamalardan tizimli foydalanish o'quvchilarning fikrlash jarayonini tartibga solish, umumlashtirish hamda xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali metodik vosita sifatida namoyon bo'ldi. Umuman olganda, tadqiqotda taklif etilgan metodik yechimlar boshlang'ich ta'lim amaliyotida qo'llash uchun maqsadga muvofiq bo'lib, ular o'quvchilarning mustaqil fikrlash, sabab-oqibat munosabatlarini anglash hamda bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishda, shuningdek, tabiiy fanlar darslarini samarali tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-4884-sonli Farmon. – Toshkent, 2020. <https://lex.uz/uz/docs/-5085887>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2021.
3. Karimova S.B. Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Yo'ldosheva G., Ziyomuhammadov B. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Abdullaeva Sh. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2020.
6. Vygotskiy L.S. Myshleniye i rech. – Moskva: Pedagogika, 1999.
7. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 2001.
8. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2006.
9. Hmelo-Silver C.E. Problem-Based Learning: What and How Do Students Learn? // Educational Psychology Review. – 2004. – Vol. 16(3). – P. 235–266.
10. Bybee R.W. The BSCS 5E Instructional Model and 21st Century Skills. – Colorado Springs: BSCS, 2014.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.